

# FUNCTIONAL-SEMANTIC ANALYSIS OF CONDITIONAL CONSTRUCTIONS IN JAPANESE

Raximova Xumora Faxriddin qizi  
O‘zDJTU Sharq filologiya fakulteti

## Abstract

This article analyzes conditional constructions in the Japanese language from a functional-semantic perspective. The study examines the grammatical structure, usage conditions, and semantic nuances of the forms  $\sim$ ば,  $\sim$ たら,  $\sim$ なら,  $\sim$ と,  $\sim$ ても, たとえ $\sim$ ても,  $\sim$ さえ $\sim$ ば, and  $\sim$ ては. These constructions are classified into semantic groups such as real condition, hypothetical condition, concessive condition, and intensified (emphatic) condition. The article provides a comparative analysis of the differences between similar forms, particularly  $\sim$ ば and  $\sim$ たら,  $\sim$ なら and  $\sim$ たら, as well as  $\sim$ ても and  $\sim$ ば. Special attention is given to the construction  $\sim$ さえ $\sim$ ば as an expression of minimal condition, and to  $\sim$ ては as a form associated with undesirable or negative results. The research concludes that Japanese conditional constructions differ not only in grammatical form but also depending on context, logical relations, and the speaker’s subjective attitude. The findings contribute to a deeper understanding and more accurate use of conditional forms for students of the Japanese language.

**Keywords:** Japanese language, conditional constructions, functional-semantic analysis, grammatical form, real condition, hypothetical condition, intensified condition, comparative analysis, semantic differences.

## Introduction

### Различия

Yapon tilida shart ma’nosini ifodalovchi grammatik konstruktsiyalar til tizimining muhim va murakkab qatlamlaridan biri hisoblanadi. Shart kategoriyasi voqea-hodisalar o‘rtasidagi sabab-natija munosabatini, taxminiy vaziyatni, qarama-qarshi shartni yoki ma’lum bir natijaga bog‘liq holatni ifodalashga xizmat qiladi. Yapon tilida shart ma’nosi birgina grammatik shakl orqali emas, balki bir necha turli konstruktsiyalar yordamida ifodalanadi. Xususan,  $\sim$ ば,  $\sim$ たら,  $\sim$ なら,  $\sim$ と,  $\sim$ ても, たとえ $\sim$ ても,  $\sim$ さえ $\sim$ ば va  $\sim$ ては shakllari shart ma’nosini turli semantik va funksional nozikliklar bilan bildiradi. Mazkur shakllar yuzaki jihatdan o‘xshash ko‘rinsa-da, ularning qo‘llanish doirasi, nutq vaziyatiga bog‘liqligi hamda so‘zlovchining munosabatini ifodalash darajasi jihatidan sezilarli farqlarga ega. Shart konstruktsiyalarini to‘g‘ri qo‘llash yapon tilini o‘rganayotgan talabalar uchun muhim masalalardan biridir. Chunki noto‘g‘ri shakl tanlanishi mantiqiy xato yoki uslubiy noaniqlikka olib kelishi mumkin.



Ayniqsa, ~ば va ~たら, ~なら va ~たら, shuningdek ~ても va ~ば shakllari o'rtasidagi farqlar ko'pincha chalkashlik tug'diradi.

### Yapon tilida shart ma'nosini bildiruvchi shakllar

Shakl	Asosiy ma'nosi	Qo'llanish xususiyati	Farqli jihati	Misol
~と	Tabiiy natija, qonuniy bog'lanish	Odatda umumiy haqiqat, tabiiy oqibat	Ikkinchi qismda buyruq, iltimos, istak kelmaydi	春になると、花が咲く。 (Bahor kelsa, gullar ochiladi.)
~ば	Mantiqiy shart	Nazariy yoki umumiy shart	So'zlovchining subyektiv xohishi kamroq seziladi	勉強すれば、合格できる。 (O'qisang, topshira olasan.)
~たら	Voqea sodir bo'lgandan keyingi shart	Real vaziyat yoki aniq natija	Eng universal shakl, ko'p vaziyatda ishlaydi	雨が降ったら、行きません。 (Yomg'ir yog'sa, bormayman.)
~なら	Ma'lumotga asoslangan shart	Oldingi gap yoki vaziyatga tayangan holda	Ko'pincha maslahat yoki taklif bilan keladi	日本へ行くなら、京都も行ったほうがいい。
~ても	Qarama-qarshi shart	Natija kutilganiga zid bo'ladi	"Garchi... bo'lsa ham"	雨が降っても、行きます。
たとえ ~ても	Kuchli qarama-qarshi shart	Ta'kid kuchli	"Hatto ... bo'lsa ham"	たとえ忙しくても、行きます。
~さえ ~ば	Minimal shart	Birgina shart yetarli	Shartning yetarliligini bildiradi	お金さえあれば、旅行できる。
~ては	Nomaqbul natija sharti	Ko'pincha salbiy oqibat bilan	"... bo'lsa, yomon"	ここでタバコを吸っては困る。

Yapon tilida shart ma'nosini ifodalovchi konstruktsiyalar ichida ~ば, ~たら va ~なら shakllari eng faol va keng qo'llaniladigan birliklar hisoblanadi. Mazkur shakllar yuzaki jihatdan o'xshash bo'lsa-da, ularning semantik yuklamasi, nutq vaziyatiga bog'liqligi hamda so'zlovchining munosabatini ifodalash darajasi jihatidan sezilarli farqlarga ega.

Avvalo, ~ば shakli mantiqiy va nazariy shartni ifodalashi bilan ajralib turadi. Ushbu konstruktsiya sabab-natija bog'lanishini obyektiv tarzda ko'rsatadi. Ya'ni birinchi qismdagi harakat yoki holat tabiiy ravishda ikkinchi qismdagi natijani yuzaga keltiradi. Masalan, 勉強すれば、合格できる jumlasida o'qish va imtihondan o'tish o'rtasidagi mantiqiy bog'lanish ifodalangan. Bu yerda so'zlovchining subyektiv hissiyoti emas, balki umumiy qoida yoki imkoniyat nazarda tutiladi. Shu sababli ~ば shakli ko'proq obyektiv va nazariy xarakterga ega.

~たら shakli esa voqea sodir bo'lgandan keyingi shartni bildiradi. Grammatik jihatdan fe'lning o'tgan zamon shakliga ら qo'shimchasi qo'shilishi orqali hosil qilinadi. Bu konstruktsiya real vaziyatlarda, kundalik nutqda keng qo'llanadi va eng universal shart shakli sifatida e'tirof etiladi. Masalan, 雨が降ったら、行きません jumlasida yomg'ir yog'ishi

sodir bo'lsa, keyingi harakat amalga oshirilmaligi ifodalangan. Bu yerda shart aniq vaziyatga bog'langan bo'lib, natija so'zlovchining qarori bilan bog'liq. ~たら shakli buyruq, iltimos, maslahat yoki istak bilan erkin qo'llanishi bilan ham boshqa shakllardan farq qiladi.

~なら shakli esa kontekstga asoslangan shartni bildiradi. Ushbu konstruktsiya ko'pincha suhbat jarayonida ilgari aytilgan ma'lumotga tayanadi va so'zlovchining subyektiv munosabatini ifodalaydi. Masalan, 日本へ行くなら、京都も行ったほうがいい jumlasida shart oldindan ma'lum bo'lgan reja yoki ma'lumot asosida qo'yilgan. Bu yerda shartdan ko'ra maslahat ma'nosi kuchliroq seziladi. Demak, ~なら shakli real sabab-natijadan ko'ra, vaziyatga munosabat bildirish funksiyasini bajaradi.

Mazkur uch shakl o'rtasidagi asosiy farq ularning semantik yo'nalishida namoyon bo'ladi. ~ば mantiqiy va umumiy shartni bildirsa, ~たら konkret vaziyat va vaqt ketma-ketligini ifodalaydi. ~なら esa kontekst va suhbat asosida yuzaga kelgan shartni ko'rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, ~ば obyektivlikka, ~たら voqelik va universallikka, ~なら esa subyektivlik va kontekstga yaqin turadi. Shunday qilib, ~ば, ~たら va ~なら shakllari bir xil "agar" ma'nosini bildirsada, ularning qo'llanishi nutq vaziyati, mantiqiy bog'lanish darajasi va so'zlovchining munosabatiga qarab farqlanadi. Ularni to'g'ri tanlash yapon tilida aniqlik va uslubiy to'g'rilikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, yapon tilidagi shart konstruktsiyalarini chuqur anglash, ularning semantik farqlari va kontekstga bog'liqligini tushunish talabalar uchun nutqni aniq, mantiqiy va uslubiy jihatdan to'g'ri ifodalashda muhim ahamiyatga ega. Bu tadqiqot yapon tilini o'rganayotganlar uchun shart shakllarini tanlash va qo'llashda foydali qo'llanma vazifasini bajaradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shinkanzen Master Bunpou N3. Japan Times. Tokyo, 2019.
2. Minna no Nihongo 2. 3rd Edition. 2017.
3. Makino, Seiichi & Tsutsui, Michio. A Dictionary of Basic Japanese Grammar. The Japan Times, 2005.
4. Makino, Seiichi & Tsutsui, Michio. A Dictionary of Intermediate Japanese Grammar. The Japan Times, 2010.
5. Kuno, Susumu. The Structure of Japanese Language. MIT Press, 1973.
6. Shibatani, Masayoshi. The Languages of Japan. Cambridge University Press, 1990.
7. Tsujimura, N. An Introduction to Japanese Linguistics. Blackwell, 1996
8. Nemoto, Kumiko. Japanese Conditional Expressions: Syntax and Semantics. 2015.
9. Noda, Yukio. Practical Japanese Grammar. Tuttle Publishing, 2012.
10. Ishida, Akiko. Japanese Sentence Patterns for Effective Communication.

